

MILLIY VA XALQARO HUIJATLARDA SO'Z ERKINLIGI

Omonova Mohinur Bahodir qizi

*Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy
axborot vositalari huquqi yo'nalishi talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola inson huquqlari tarkibiga kiruvchi, ajralmas huquqlardan biri bo'lgan so'z erkinligiga asoslangan bo'lib, unda xalqaro hamda milliy qonunchilikda so'z, fikr erkinligiga tegishli moddalar tahlili batafsil yoritilgan.

ANNOTATION

This article is based on freedom of speech, which is one of the inalienable rights of human rights, and it contains a detailed analysis of articles related to freedom of speech and opinion in international and national legislation.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена свободе слова, которая является одним из неотъемлемых прав человека и содержит подробный анализ правовых основ, касающихся свободы слова и убеждений в международном и национальном законодательстве.

KIRISH

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan XXI asr axborot asri hisoblanadi. Bugun axborot jamiyat taraqqiyotining bosh omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Aynan ushbu axborot almashinuvi rivojlanayotgan, globallashuv asrida inson huquqlari, jumladan so'z, fikr erkinligiga e'tibor har qachongidan ham kuchayib bormoqda. Negaki davlat va jamiyatning barqaror rivoji ko'p jihatdan fuqarolarning fikrlar, g'oyalar, ma'lumotlar va bilimlarga bo'lgan ehtiyojlari nechog'lik qondirilishiga bog'liqligiga bugungi kunda yanada ko'proq amin bo'lib borilmoqda.

Fikr va so'z erkinligi har qanday demokratiyaning jon tomiridir. Fikrlash, so'z, e'tiqod erkinligi hamda uni ifodalash insonning eng muhim huquqlaridan biri hisoblanadi.

Biz ommaviy axborot vositalari, radio-televideniya orqali so'z, fikr erkinligi haqida juda ko'p ma'lumotlar, bu huquqni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni tinglamodamiz va guvohi bo'lmodamiz.

ASOSIY QISM

So'z erkinligiga bir necha mashhur olim va huquqshunoslar ta'rif bergan va bu huquqning inson hayotida qanchalik muhim ekanligiga to'xtalib o'tishgan. Ulardan biri inson huquqlarining otashin tarafdori bo'lgan Volter bo'lib, u "O'z fikrlarini e'lon qilish erkinligi fuqaroning muhim huquqi deb bilgan edi. "Birorta ham gapingizga

qo'shilmayman, lekin uni aytish huquqingiz uchun o'lishga ham tayyorman" degan tamoyil uning hayot tarzini belgilab bergan.

Mashhur amerikalik huquqshunos Ralf Neyder "Axborot – demokratiyaning asosiy valyutasidir" degan fikrni ilgari surgandi. Darhaqiqat so'z erkinligisiz demokratiya ham, inson erkinligi ham bo'lmaydi¹. So'z erkinligi avvalambor, har bir fuqaroning shaxsiy huquqi, axborot erkinligi esa har bir insonning tabiiy huquqidir.

Inson huquqlarining ta'minlanishi, jumladan har bir fuqaro so'z erkinligi himoyasi har qanday holatda ham mustahkam huquqiy asosga tayanishi lozim va bu borada bugungi kunda qilinayotgan ishlar taqsigina loyiqdir.

Hozirgi vaqtdagi inson huquqlari, jumladan so'z, fikr erkinligiga doir hujjatlarni biz uch darajaga bo'lishimiz mumkin:

Birinchi, davlat darajasida, ya'ni milliy qonunlarda;

Ikkinchi, har bir mintaqa darajasida – mintaqaviy tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qonuniy hujjatlarda;

Uchinchi, global darajada – dunyo miqyosida qabul qilingan xalqaro-huquqiy hujjatlar va tan olingan universal shartnomalarning tegishli moddalarida o'z aksini topgan.

Yurtimiz O'zbekistonda ham so'z erkinligini, fikrlar xilma-xilligini, odamlar o'z qarashlarini ochiq-oshkora ifoda etishini amalda ta'minlash uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Buni biz qonun hujjatlarda belgilab qo'yilgan tegishli moddalar hamda amalga oshirilayotgan samarali ishlar orqali ham ko'rishimiz mumkin.

Birinchi navbatda, milliy qonunchiligimizda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – inson huquq va erkinliklarining kafolati hisoblanadi. 2023-yil 30-aprel kuni referendum - umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 33-moddasida har kim fikrlash, so'z erkinligi hamda e'tiqod erkinligi huquqiga ega ekanligi, shu bilan birga har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega ekanligi qonun bilan mustahkamlanib qo'yilgan. Shuningdek davlat fuqarolar internet tarmog'idan foydalanish uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berishni o'z zimmasiga olgani ham ushbu moddada keltirilgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda aynan qanday vaziyatlarda axborot olish erkinligi, so'z erkinligi cheklanishi batafsil yoritilgan:

- amaldagi Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan;
- boshqa shaxslarning huquq hamda erkinliklariga rahna soluvchi;
- ijtimoiy axloqni buzuvchi;
- fuqarolarning sog'lig'iga ziyon keltiruvchi axborotlarni cheklash mumkin.

¹ Saidov. A. X. Mirzayev.F. So'z, fikr va axborot erkinligi: xalqaro huquqiy asoslar: huquqiy hujjatlar to'plami Toshkent: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2021. 4-b

Shuningdek, fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida yoki efirga uzatilayotgan yoki biror fuqaro tomonidan berilayotgan axborot davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin².

Bundan tashqari so'z, fikr, matbuot erkinligiga oid quyidagi qonun-hujjatlari mavjud: "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunlar.

Mintaqaviy hujjatlardan Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik Tashkiloti (YXHT)ning quyidagi hujjatlarida So'z, fikr, matbuot erkinligi kafolatlangan:

- Xelsinki Yakunlovchi Akti;
- 1990-yilda imzolangan Parij Ustavi;
- 1994-yil Budapeshtdagi YXHT sammiti yakuniy hujjati;
- Istanbul sammiti Deklaratsiyasi.

1975-yil 1-avgustda qabul qilingan Xelsinki Yakunlovchi hujjatida ishtirok etuvchi davlatlar barchalarning irqi, jinsi, tili yoki dinini ajratmagan holda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini, shu jumladan fikr, vijdon, din va e'tiqod erkinligini hurmat qiladilar³.

1990-yil 21-noyabrda imzolangan Parij xartiyasida so'z, fikr erkinligiga oid shunday jumlar mavjud:

Demokratiya o'z fikrini izhor etish erkinligi, jamiyatdagi barcha guruhlariga nisbatan sabr-toqat qilish va har bir inson uchun imkoniyatlar tengligining eng yaxshi kafolati hisoblanadi.

Biz, hech qanday kamsitishlarsiz har bir inson: fikr, vijdon, din, e'tiqod erkinligi, o'z fikrini izhor etish erkinligi, uyushmalarga birlashish va tinch yig'ilishlar o'tkazish erkinligi, bir joydan ikkinchi joyga bemaol ko'chish erkinligi huquqlariga ega ekanligini tasdiqlaymiz⁴.

1994-yil 6-dekabrda qabul qilingan YXHT Budapesht sammitining "Yangi davrda haqiqiy sheriklik sari" hujjatida o'z fikrini bildirish erkinligi, erkin axborot vositalariga alohida ahamiyat qaratilib, hujjatning 36-moddasida shunday deyilgan⁵:

Ishtirok etuvchi davlatlar o'z fikrini erkin bildirish insonning asosiy huquqi va demokratik jamiyatning asosiy unsurlaridan biri hisoblanganini yana bir bor tasdiqlaydilar. Shu ma'noda ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi hamda

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi/ <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

³ The Helsinki final act // <https://www.osce.org/wp-content/uploads/2016/10/Helsinki-Final-Act.pdf>

⁴ Парижская хартия для новой Европы// <https://www.osce.org/files/f/documents/3/4/39520.pdf>

⁵ Совещание по безопасности и сотрудничеству в Европе Декларация Будапештской встречи на высшем уровне на пути к подлинному партнерству в новую эпоху// https://e-ecolog.ru/docs/bbKPAwfqzRWXQ5Z0xOX41/full?utm_referrer=https%3A%2F%2Fyandex.ru%2F

plyuralizmi erkin va ochiq jamiyat hamda davlat boshqaruvi organlari hisobdorligini ta'minlash uchun o'ta muhim ahamiyatga ega. Ularning rahbarlik prinsipi bu huquqni himoya qilishdan iborat bo'ladi.

37. Ular jurnalistlarga qarshi qilingan barcha hujum hollarini va ularga nisbatan maqsadli yo'naltirilgan yovuz xulq-atvorda bo'lishni qoralaydilar hamda bunday hujumlar va xulq-atvorda bo'lishda bevosita aybdor shaxslarni javobgarlikka tortishga intiladilar.

38. Ular ayniqsa, hukumat tomonidan ommaviy axborot vositalari yordamida elatlararo nafrat qo'zg'atadigan va keskinlikni kuchaytiradigan xatti-harakatlar yaqinlashib kelayotgan mojarolardan dastlabki ogohlantirish bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydilar.

1999-yil 19-noyabrda qabul qilingan YXHT Istanbul sammiti deklaratsiyasida so'z, fikr erkinligi quyidagicha himoya qilinadi:

27. Biz (YXHT ishtirok etuvchi davlatlarining davlat va hukumat boshliqlari) fikrlar xilma-xilligi hukmron bo'lgan demokratik jamiyatlar qaror topishining fundamental sharti hisoblangan ommaviy axborot vositalari erkinligini ta'minlash majburiyatini o'z zimmamizga olamiz. Biz mojarolar yuz bergan zonalarda nafrat va elatlararo keskinlik olovini yoqish uchun ommaviy axborot vositalarini suiiste'mol qilishdan, shuningdek fuqarolarni erkin ommaviy axborot vositalaridan mahrum qilish uchun huquqiy cheklovlar va gichgichlashlardan foydalanilishidan nihoyatda tashvishdamiz. Biz har qanday demokratik jamiyatda siyosiy muloqotning eng muhim unsurlaridan bo'lgan o'z fikrlarini erkin bildirishni ta'minlash zarurligini ta'kidlaymiz. Biz ommaviy axborot vositalari erkinligi masalalari bo'yicha vakil Byurosining erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab quvvatlaymiz⁶.

So'z erkinligining huquqiy asoslanishida xalqaro hujjatlarning o'rni katta. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ko'plab xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Bu esa so'z erkinligini Respublikamizda mustahkamlashda muhim qadamlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Quyida aynan O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro hujjatlar taqdim etiladi. Ulardan eng asosiylaridan biri Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidir. Deklaratsiyaning 19-moddasida fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi hamda har kimning o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega ekanligi qonun bilan mustahkamlanib qo'yilgan⁷.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt"ga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 127-I-sonli "1966-yil 16-dekabrda fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga

⁶ Istanbul document 1999// <https://www.osce.org/files/f/documents/6/5/39569.pdf>

⁷ Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси // <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.

qo'shilish haqida"gi qaroriga asosan qo'shilgan. Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 28-dekabrda kuchga kirgan.

Ushbu xalqaro paktning 18- va 19- moddalari so'z, fikr erkinligiga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Ushbu huquq o'z ixtiyori bilan o'ziga ma'qul dini qabul qilish va e'tiqod qilish erkini, yakka holda, shuningdek boshqalar bilan birgalikda, oshkora yoki xususiy tartibda ibodat qilish, diniy va boshqa urf-odatlarini va marosimni bajarish erkini ham o'z ichiga oladi.

19-moddasida keltirilishicha, har bir inson hech bir to'siqsiz o'z fikriga sobit bo'lish huquqiga ega. Har bir inson o'z fikrini erkin bayon etish huquqiga ega; bu huquq davlat chegaralaridan qat'iy nazar yozma ravishda yoki matbuot orqali yoki ifodalashning badiiy shakllari yoki o'z ixtiyoriga ko'ra boshqacha usulda turli axborot va g'oyalarni qidirish, olish va tarqatish erkinligini qamrab oladi⁸.

Bundan tashqari "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya ham mavjud bo'lib, mazkur konvensiya O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-iyundagi O'RQ-695-sonli Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan hamda O'zbekiston Respublikasi uchun 2021-yil 28-iyuldan kuchga kirgan. Ushbu konvensiyaning 21-moddasi "Fikr va e'tiqodni ifoda etish erkinligi va axborotdan foydalanish imkoniyati" deb nomlanib, unda quyidagilar keltirilgan:

Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar fikr va e'tiqodlarini erkin ifoda etish huquqini, shu jumladan ushbu Konvensiyaning 2-moddasida belgilab qo'yilgan muomalaning barcha shakllaridan o'z tanlovi bo'yicha foydalangan holda axborot va g'oyalarni izlash, olish va tarqatish erkinligini ta'minlash uchun barcha zarur choralarini ko'radi, shu jumladan:

- nogironlarni foydalanish imkoniyati bo'lgan shaklda va nogironlik turli shakllarini hisobga olgan texnologiyalardan foydalanib, o'z vaqtida va qo'shimcha haq olmasdan keng ommaga mo'ljallangan axborot bilan ta'minlash;
- rasmiy muomalada ishora tili, Brayl alifbosi, muomalani kuchaytiradigan va muqobil vositalaridan hamda nogironlarning tanlovi bo'yicha muomalaning boshqa foydalanish imkoniyati bo'lgan barcha vositalari, usullari va shakllaridan foydalanishlariga yordam ko'rsatish;
- keng ommaga, shu jumladan internet orqali xizmat ko'rsatadigan xususiy korxonalarini nogironlar uchun foydalanish imkoniyati bo'lgan va yaroqli shakllardagi axborot va xizmatlar taqdim etishga da'vat etish;

⁸ Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт // <https://lex.uz/docs/2640479>.

- ommaviy axborot vositalarini nogironlar axborotdan, shu jumladan internet orqali taqdim etadigan xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlashga da'vat etish;
- ishora tillaridan foydalanishni e'tirof etish va rag'batlantirish⁹.

O'zbekiston Respublikasi ratifikatsiya qilgan yana bir xalqaro hujjat "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya hisoblanadi. Mazkur konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrda 757-XII-sonli "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilish haqida"gi Qaroriga muvofiq qo'shilgan.

O'zbekiston Respublikasi uchun ushbu hujjat 1994-yil 29-iyuldan kuchga kirdi. Bu konvensiyaning 12- va 13- moddalari aynan bolalarning so'z, fikr erkiga qaratilgan bo'lib, 12-moddaga ko'ra:

Ishtirokchi-davlatlar o'z qarashlarini shakllantirishga qodir bo'lgan bolaga o'ziga taalluqli bo'lgan barcha masalalarda o'z fikrini erkin ifoda etish huquqiga ega bo'lishini ta'minlaydilar, bolaning fikriga bolaning yoshi va yetukligiga mos ravishda tegishli e'tibor beriladi. Ularga to'g'ridan-to'g'ri yoki vakillik yoki tegishli organ orqali o'zlariga taalluqli bo'lgan har qanday sud yoki ma'muriy jarayonda fikrini ifoda etish imkoniyati beriladi.

Ushbu konvensiyaning 13-moddasida esa bola o'zining huquqini erkin ifodalash huquqiga ega ekanligi, bu huquq har qanday turdagi axborotni, chegarasidan qat'iy nazar, og'zaki, yozma yoki bosma shaklda, san'at ko'rinishida yoki bolaning tanloviga ko'ra boshqa vositalar yordamida izlash, olish va uzatish erkinligini o'z ichiga olishi belgilangan. Shuningdek, bunday huquqlarni amalga oshirilishi ba'zi cheklanishlarga duch kelishi mumkinligi, biroq bunday cheklashlar faqat qonunda ko'zda tutilgan cheklashlardan iborat bo'lishi, bu quyidagilar uchun zarurligi qonun bilan mustahkamlangan:

boshqa shaxslarning huquqlari va obro'sini hurmat qilish uchun:

- davlat xavfsizligi yoki jamoat tartibini, aholining sog'lig'i yoki ma'naviyatini muhofaza qilish uchun¹⁰.

Yana bir Respublikamizda ratifikatsiya qilingan xalqaro konvensiyalardan biri "Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risida"gi xalqaro konvensiyaning beshinchi moddasida ishtirokchi davlatlar irqiy kamsitishni uning barcha shakllarida taqiqlash va yo'qotish hamda har bir odamning irqi, tana rangi, milliy yoki etnik nasabidan qat'iy nazar, bir qancha huquqlarni amalga oshirish va ularni ta'minlash majburiyatlarini olishlari keltirib o'tilgan. Berilgan huquqlar orasida bir qancha fuqarolik huquqlari, jumladan fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqi ham mavjuddir¹¹.

⁹ Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция // <https://lex.uz/docs/5501227>.

¹⁰ Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция // <https://lex.uz/docs/2595909>

¹¹ Иркий камситишнинг барча шакллариға бархам бериш тўғрисидаги халқаро конвенция // <https://lex.uz/ru/docs/2656183>.

XULOSA

Umuman olib aytganda har kimning o'z fikrini ochiq, erkin bayon qila olishi kuchli fuqarolik jamiyati shakllantirishda juda katta rol o'ynashi hozirgi globallashuv davrida haqiqatga aylanishga ulgurdi. Mamlakatda fikrlar qarama-qarshiligi jamiyatni rivojiga, sog'lom raqobatning yuzaga kelishiga, so'ngra esa bu davlatda demokratiya mustahkamlanishiga olib keladi. Ralf Neyder ta'kidlaganidek, "Axborot – demokratiyaning asosiy valyutasidir". So'z erkinligi esa ana shu "valyuta"ning ajralmas qismidir. Usiz demokratiya qurish imkonsiz. Shu sababli so'z, fikr erki huquqiga e'tibor yildan yilga yanada kuchayib bormoqda. Prezidentimiz ham so'z, fikr erkinligiga diqqat qaratib "Fuqarolarning fikr, so'z va e'tiqod erkinligiga doir konstitutsiyaviy huquqlarni ta'minlash - rivojlangan demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartidir¹²" deb aytgan edilar.

So'z, fikr erkinligi ham o'z-o'zidan bu darajadagi huquqiy asosga yetishganicha yo'q. Insonlar bu huquqning mustahkam qonuniy asosga ega bo'lishi uchun asrlar davomida kurash olib borishgan. Bu kurashlar natijasida birin-ketin yuqorida keltirilgan xalqaro hujjatlardan: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, mintaqaviy hujjatlardan: Xelsinki Yakunlovchi Akti, YXHTning insoniy qadriyatlarini Kopengagen yig'ilishining yakuniy hujjati, 1990-yilda imzolangan Parij Ustavi, 1994-yil Budapeshtdagi YXHT sammiti yakuniy hujjati, Istanbul sammiti Deklaratsiyasi, milliy hujjatlardan esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qaror topgan. Inson huquqlari orasida so'z va fikr erkinligi nechog'lik yuqori turishi ushbu hujjatlarda ham o'z tasdig'ini topgan.

Ammo shuni ham inobatga olish kerakki, hozirgi kunda bu sohada hanuz ko'plab muammolar, yechilmagan masalalar ko'p. Bu masalalarni yechishda ham yuqoridagi hujjatlar dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saidov. A. X. Mirzayev. F So'z, fikr va axborot erkinligi: xalqaro huquqiy asoslar: huquqiy hujjatlar to'plami – Toshkent: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2021. -114b
2. Istanbul document 1999// <https://www.osce.org/files/f/documents/6/5/39569.pdf>
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi/ <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
4. The Helsinki final act // <https://www.csce.gov/wp-content/uploads/2016/10/Helsinki-Final-Act.pdf>
5. Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция // <https://lex.uz/docs/2595909>;

¹² Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi// https://constitution.uz/oz/pages/prezident_maruzasi_25yil

6. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси // <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.
7. Ирқий камситишнинг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисидаги халқаро конвенция // <https://lex.uz/ru/docs/2656183>.
8. Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция // <https://lex.uz/docs/5501227>.
9. Парижская хартия для новой Европы// <https://www.osce.org/files/f/documents/3/4/39520.pdf>
10. Совецание по безопасности и сотрудничеству в Европе Декларация Будапештской встречи на высшем уровне на пути к подлинному партнерству в новую эпоху// https://e-colog.ru/docs/bbKPAwfqzRWXQ5Z0xOX41/full?utm_referrer=https%3A%2F%2Fyandex.ru%2F
11. Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт // <https://lex.uz/docs/2640479>.